

Научное издание

**СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В
ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ**

(17-18 октября 2022г., Минск)

Материалы международной
научно-практической конференции

Статьи публикуются в авторской редакции
Ответственный редактор Морозов С.А.

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 6/2 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ

Нағмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлкин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Асқар ДЖУМАШЕВ

Гулнара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Асқарбай НИЯЗОВ

Азамат НОРБЕКОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаххор ТУРСУНОВ

Тажибай УТЕБАЕВ

Саодат ТОШТЕМИРОВА

Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНБИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы

Халық билимлендириў

Министрлиги, ӨЗПИИИ

Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы

Министрлер Кабинети

жанындағы Жоқарғы

Аттестация Комиссиясы

Президиумының 25.10.2007

жыл (№138) қарары менен

дизимге алынды

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54**

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хәм узликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилицүи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыұматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

Umarov I.A. “Малика айёр” достони лексикасида туркий қатламнинг қўлланиши	4
Шодиева Ш.И. Оламнинг лисоний манзараси ҳақида қарашлар	9
Haydarova Z. Satira nazariyasi haqida mulohazalar	14
Mamaraximova N. Ijodiy tafakkurda nutqning ahamiyati	16
Ergashev A. Xurshid Do‘smuhammadning ramzga asoslangan hikoyalari o‘qitish metodlari	21

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yalubjanova D., Maxmudov F. Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola va ularning ota – onalari bilan bog‘liq muammolar	25
Musurmonov R., Musurmonova M. Yangi o‘zbekiston sharoitida ta‘lim muassasasi rahbarining innovatsion faoliyati xususiyatlari	29
Мусурмонов Р., Султонова Д. Замонавий таълим муассасаси раҳбарининг инновацион фаолияти хусусиятлари	33
Мусурмонов Р., Суяров А. Таълим муассасалари раҳбарларининг маънавий киффаси, маданияти ва унга қўйилган талаблар хусусида	37
Мусурмонов Р., Хакимова И. Ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида	43
Турсунбаева Ю. Р. Олий таълим сифатини таъминлаш ва самарадорлигини оширишнинг замонавий имкониятлари	47
Расулов А. Н., Хуррамов К.М. Таълим кластери шароитида “Иқтисодий билим асослари” фанини ўқитишнинг ташкилий шароитлари	50
Aripov I. Yu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik diagnostika	55
Азамов Ж. Олий таълим муассасалари бошқарувида Осиёча субстансиал ва процессуал автономия тамойилларини жорий этиш самарадорлиги	60
Ziyayev A. Seminar mashg‘ulotlarini interfaol nashkil etishning afzallik jihatlari	64
Arifxodjayev G., Yuldasheva O. Dizartiya nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarda idrok shakllanishining o‘ziga xosligi	66
To‘raqulov L. Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi	70
Тошболтаев Ф. Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизимини такомиллаштиришнинг хусусиятлари	75
Akramova X., Safarov M. Yordamchi maktabda ta‘lim jarayonini rivojlantirishni o‘ziga xosligi	79
Nazarqosimov Q., Qarshiboyev A. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda didaktik materiallarni qo‘llanilish bo‘yicha mashg‘ulotlarning ahamiyati	83
Мустафақулова Д. Таълимда тизимли ёндашув	86
Mixliboyev F. Nutqning normal va nuqsonli rivojlanishida nutq va kognitiv funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi	91
Qaxxarova N. N. Bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning tarixiy falsafiy asoslari	94
Abdullayeva G. R. Adekvatlik tushunchasining psixologik tahlili	98
Eshbekova G. X., Ximmataliyev D. O. O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida korruptsiya tarqalishining oldini olish chora – tadbirlarida maktab rahbarining ijtimoiy roli	103
Islamova M.Sh. The role of natural sciences in education of “divergent personnel”	106
Ганиева А.З. Мактабгача таълим ташкилотларининг бошқарув фаолиятини такомиллаштиришда хорижий тажрибалар	108
Химматалиев Д. О., Баратов Д. Талабаларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда креатив компетентлигини ривожлантириш	113
Мўминов М. А. Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш	116

Қораев С. Б. Таълим мухитини бошқаришда кластерли ёндашув	118
Мухамедова Г. Б. Олий таълим муассасалари битирувчиларининг хорижий тилларни ўрганишда креатив компетентлигини шакллантириш	120
Химматалиев Д. О., Искандарова Г. П. Умумий ўрта таълим мактабларини креатив ёндашув асосида бошқариш	123
Хакимов Ж. О., Жалилов А. А. Профessional таълимда замонавий инновацияларнинг мазмуни ва моҳияти	127
Хакимов Ж. О., Жалилов А. А. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили	131
Химматалиев Д. О., Хакимова М. Ў. Замонавий дарснинг дидактик хусусиятлари	134

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rasulova D. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining axloqiy mezonlari	139
Qilichova M. Yoshlar siyosiy qiyofasi to'g'risidagi qarashlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati	141
Абдурасулова Д. Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзининг амалда тадбиқ этилиши (Жиззах шаҳри мисолида)	147
Nazarqosimov Q., Berdiyev X. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda va korreksiyalashda logopedik yondoshuvlar	150
Raimjonov S. Yakka tartibdagi darslarda o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish	152
Xolmirzayev O. O'zbek xalq cholg'usi chang tarixidan	156
Abdukarimova E. O'zbekistonda mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodining tutgan o'rni va uning tadrijiy rivojlanishi	159

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Tayirova M. Ta'lim jarayonlarida samarali tashkil qilishda ta'lim vositalari va multimedia texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi	165
Назарова Г. Бўлажак иқтисодчиларда аналитик тафаккурни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни	170

БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Akramova X., Abatbayeva A. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yin faoliyatida nutqiy muloqotning faolligini oshirish xususiyatlari	173
Arifxodjayev G., Muminova Z. Boshlang'ich sinflarda disleksiyasi bo'lgan o'quvchilarning o'qish malakalarini korreksiyalash	176
Nekboyev X., Kamalova D.T. Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zaro integratsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	180
Сафаров Б. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларда педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар	188

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Пармонов А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантириш модели	192
Абдуллаев О. Ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вазифалари	196
Nurmatov F.A. Milliy harakatli o'yinlar va uning rivojlanishi	200
Каримов У.Р. Решение некоторых ошибок и недостатков в физическом воспитании и в спорте вузов и всех образовательных учреждениях	203

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING INNOVATSION FAOLIYATI XUSUSIYATLARI

Musurmonov R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktab menejmenti"

kafedrası dotsenti, p.f.n.

Musurmonova M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"

kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'lim muassasasi rahbari, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon, innovatsion yondashuvlar, faoliyatni muvofiqlashtirish, boshqaruv funksiyalari, pedagogik jarayon sub'ektlari, o'quv motivlarini shakllantirish, innovatsiyaning asoslanganlik darajasi.

Ключевые слова: руководитель образовательного учреждения, инновационная деятельность, педагогический процесс, инновационные подходы, координация деятельности, функции управления, субъекты педагогического процесса, формирование образовательных мотивов, уровень инновационности.

Key words: head of an educational institution, innovative activity, pedagogical process, innovative approaches, coordination of activities, management functions, subjects of the pedagogical process, formation of educational motives, level of innovation.

Ma'lumki, keyingi 5-6 yilda ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasi o'laroq, ta'lim muassasalarini boshqarishni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim muassasasi zimmasiga jamiyatimiz uchinchi renesans poydevorini yaratishdek o'ta muhim va mas'uliyatli vazifani yukladi. Buning uchun barcha ta'lim tizimi muassasalarida boshqaruv tizimini tartibga solish va xorijiy davlatlar ilg'or tajribalariga suyanan holda innovatsion boshqaruvga alohida ahamiyat berish zarurati paydo bo'ladi.

Avvalo, ta'lim muassasalari rahbarlarining tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun monitoring olib borish, tashxislash, baho berish, aniqlash, ularning zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqib, toifalarga ajratib qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi, uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, ilmiy va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarur bo'lgan funksional vazifalarni bajarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, pedagogik jarayon sub'ektlarining o'zaro munosabatlari, vaziyatlarni tahlil qilish va faoliyatni muvofiqlashtirish, boshqaruv funksiyalari va metodlaridan oqilona foydalanish zarur bo'lib, ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta'sir ko'rsatishning tartibi, ketma-ketligi, yo'llari va ularning ahamiyatini ifodalaydi.

Pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish jarayonlari ham quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- pog'onaviylik darajasi bilan o'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish darajasining nomutanosibliigi;
- o'quvchilarda bilim olish ehtiyojini xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini ham inobatga olgan holda muntazam shakllantirish va rivojlantirib borish, pedagogik jarayonning samaradorlik darajasini belgilash;
- pedagogik jarayon sub'ektlarining innovatsion jarayonlar natijalariga qiziqishini shakllantirishning ahamiyatliligi;

- sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishligining ahamiyatliligi;
- motivlarning va motivlashtirish jarayonlarining ahamiyatliligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari sifatida:
- innovatsion jarayon ishtirokchilarida yangiliklarga qiziqishni shakllantirishning ahamiyatliligi;
- innovatsion jarayon ishtirokchilari faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvatlash, innovatsiyalarni ommalashtirishga xizmat qilish;
- innovatsiyaning asoslanganlik darajasi, innovatsiyaning ixtilofliligi, ahamiyatliligi tavakkalchilik darajasi, vaziyatga aloqadorliligi, strukturaviyligi va boshqaruvchanligi hamda ijtimoiy mo'ljallanganligi innovatsion jarayonlar samaradorligiga o'z hukmini o'tkazishini keltirish mumkin.

Ta'lim muassasasi rahbarlarning faoliyatini takomillashtirish yo'nalishidagi innovatsion boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari sifati:

- pedagogik jarayonlar samaradorligi jamoadagi qulay ta'limiy muhitning shakllantirishga bog'liqligi;
- hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatining samaradorligi ishtirokchilarning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalariga, shuningdek, jamoatchilik tashkilotlari va jamoaviy boshqaruv organlarining faolligiga bog'liqligi;
- hamkorlikda boshqaruv jarayoni ishtirokchilarining innovatsion boshqaruv faoliyati o'ziga xos integrativ tizim ekanligi;
- inovatsiyalarni joriy etishda zamonaviy yondashuvlar (tizimli, vaziyatli, etnik, milliy-hududiy, shaxs-faoliyati, korporativ yondashuvlari) ning ahamiyatliligi;
- ta'lim muassasasining faoliyati bo'yicha to'plangan axborotlarning yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish va ob'ektiv baholashning zarurligi kabi qator xususiyatlarni keltirish mumkin.
- rivojlanishning ichki ehtiyojlar va manfaatlarga bog'liqligi, ularni aniqlamasdan rivojlantirish yo'nalishini majburan belgilashning mumkin emasligi;
- rahbar shaxsining individual-psixologik xususiyatlari bilan innovatsion boshqaruv vaziyatlarini belgilash, rahbar amalga oshirayotgan uslublar o'rtasidagi bog'liqlik;
- hamkorlikda boshqaruvning natijaviyligi bilan rahbar va xodimlarning boshqaruv yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalarining o'zaro bog'liqligi;
- rahbarlarning o'zini-o'zi rivojlantirish va boshqarish faoliyatini takomillashtirishning reflektiv faoliyatga bog'liqligi bilan belgilanadi.

Bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tish sharoitida boshqarish xususiyatlariga quyidagilarni qo'shish maqsadga muvofiqdir:

- har bir shaxs ijodiy kuchlarining namoyon bo'lishi imkonini beruvchi boshqaruv shakli va uslublarigina maqbuldir;
- boshqaruv moslanuvchan bo'lishi kerak, ya'ni boshqaruv tizimini samaradorlik darajasini ro'yobga chiqarish maqsadida o'zgarayotgan vaziyatlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi kerak;
- jamoaning o'quv-tarbiya faoliyatini rejalashtirishda moddiy xarajatlar masalalarini ularning maksimal samaradorligi asnosida hal qilish (iqtisodiy dastaklarni ishga solish) zarur;
- boshqarish jamiyat rivojining ob'ektiv qonunlarini bilish, yangi hodisalarni umumlashtirish, ishdagi ilg'or yo'nalishlarni hisobga olish ishlariga tayanadi;

- boshqarishni takomillashtirishda sub'ektivizmga yo'l qo'yilmaydi, muvaffaqiyatlar vazifalarning qanchalik to'g'ri qo'yilganligi va o'z vaqtida bajarilishiga bog'likdir;
- boshqarishning samaradorligiga rahbar xodimlar va shu kabilarning bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligi ta'sir qiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'lim muassasasi rahbarlarining nazariy bilimlari, kasbiy va shaxsiy sifatlarining o'zaro bog'liqligi, hamkorlikda boshqaruvning natijaviyligi bilan rahbar va xodimlarning innovatsion boshqaruv yo'nalishidagi bilimi, mahorati va tajribalarining o'zaro bog'liqligi kabi qator xususiyatlar muassasa rahbarlarining kasbiy kompetentligi va uni rivojlantirish texnologiyalarini o'rganishni taqozo etadi.

L.V.Fatkin o'z tadqiqotlarida rahbarning beshta asosiy xususiyatini sanab o'tadi:

- moslashuvchanlik – unchalik katta bo'lmagan jamoada shaxslararo munosabatlarning dinamikasini tavsiflaydi;
- etakchilik – muammoli vaziyatlarni hal qila olish, o'zgalardan barcha xususiyatlari bilan sifat jihatdan yuqori turish;
- ijtimoiy funksiyalarga integratsiyalashuvi – noformal emotsional lider bo'la olish;
- kirishuvchanlik – pozitiv ijtimoiy aloqalarni o'rnatish;
- stresslarga qarshi tura olish – intellektual, irodaning mustahkamligi, emotsional.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshqaruvida rahbar shaxsi qobiliyati, ma'naviyati va imkoniyatlarini belgilovchi quyidagi parametrlarni ko'rish mumkin.

Rahbarning ma'naviy – axloqiy-irodaviy xususiyatlari			
Axloqiy etuklik	Vatanparvarlik	Halollik	Mehnatsevarlik
Huquqiy etuklik	Shaxsiy javobgarlik	Mehribonlik	Tanqidga chidamlilik
Siyosiy etuklik	Ma'rifatlilik	Tashabbuskorlik	Tarbiyalanganlik
Yuqori saviya va ong	Madaniyatilik	Jiddiylik	Intizomlilik

Ta'lim muassasasi rahbarining innovatsion faoliyati xususiyatlari

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish orqali boshqaruv faoliyatini muntazam rivojlantirib borish zamonaviy ta'lim muassasasi uchun muhim hisoblanadi. Ta'lim muassasasi rahbarlarining innovatsion faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarga ta'lim muassasasi faoliyatini tashqi muhitning o'zgarishiga mos ravishda tashkil etish, muvofiqlashtirish asosida ta'lim muassasasining muntazam rivojlanib borishini oldindan aniqlash, rejalashtirish va shakllantirishdan iborat bo'lib, uch asosiy: ijodiy, tahliliy va tadqiqotchilik komponentlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasasi rahbarining innovatsion boshqaruv faoliyati o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ijodiy hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi rahbari innovatsion boshqaruv faoliyatining asosiy komponentlariga:

- ijodiy guruh tuzish;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dastur va qo'llanmalar yaratish;
- faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan tomonlari;
- tadqiqot ishlarini tashkil etish kiradi.

Adabiyotlar tahlili va amaliy tajribalarning ko'rsatishicha, ta'lim muassasasi rahbarining tadqiqotchilik faoliyati refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya'ni:

- ta'lim-tarbiya ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur sharoitlarni yaratish;

- shuningdek, natijalarni baholash va qarorlar qabul qilish,
- boshqaruvda qo'llanilayotgan texnologiyalar mazmuni va o'qitish metodlarini muntazam ravishda tahlil qilish va baholab borishni o'z ichiga oladi.

Innovatsion boshqaruvni tashkil etuvchi navbatdagi tahliliy faoliyat bo'lib, unda zamonaviy ta'lim muassasasi rahbari bajarilishi zarur bo'lgan:

- nostandart masalalarni tahlil qila olishi;
- jamoa faoliyatidagi ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi;
- innovatsion g'oyalarni rag'batlantirishi va rivojlantirishi;
- vaziyatli yondashuv hamda amalga oshirilgan tahlillar asosida boshqaruv texnologiyalarini yangilab borishi muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatni tashkil etishda:

- ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, munosabatlarni o'zgartirish;
- rahbarlar va pedagogik xodimlarning xatti-harakatlari, faoliyat uslublarini yangilash bo'lib, bunga innovatsion g'oyalarni qo'shish, o'zgartirish;
- qayta tashkil etish, yangilash, yaratish jarayoni vujudga keladi.

Mazkur faoliyat:

- zamonaviy ta'lim muassasasining texnik, texnologik va metodik ta'minotini qayta tashkil etish;
- shuningdek, jamoada psixologik muhitni o'zgartirish bilan bog'liq;
- zamonaviy ta'lim muassasasining rivojlanish jarayonini o'rganishda rahbarning shaxs sifatidagi o'rnini ham hisobga olish zarur.

Boshqaruv ko'nikmalari:

- rahbarning psixologik xususiyatlari;
- hissiy-irodaviy sifatleri;
- ijodiy fikrlashi, intellektual qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Bular shaxsning integrativ xususiyatlari bo'lib, murakkab tizim hisoblangan psixologik va amaliy harakatlarni o'zlashtirish tezligi, sifati va samaradorligini belgilaydi. Qoidaga ko'ra, bular ta'lim olish hamda tushunchalar asosida shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning YAngi tarakkiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora - tadbirlari tug'risida"gi PF-6108 - sonli Farmoni.
4. Ahlidinov R. Sh. Ta'lim muassasasini boshqarish san'ati. – T.: "Fan", 2006. – 303 b. 721
5. Zvereva V. I. Organizatsionno-pedagogicheskaya deyatel'nost rukovoditelya shkoly. – M.: "Novaya shkola", 1992. – 114 s.
6. Kalina I. I. Programmno-selevoiy metod upravleniya kak faktor razvitiya regionalnoy sistemy obrazovaniya. Pedagogicheskaya mysl i obrazovanie XXI veka. – Orenburg: Izd-vo OGPU, 2000. – S. 97-103.
7. Po'latov Sh.P. Ta'lim menejmenti yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv./ T.: "Yosh kuch".2022 y.
8. R.Musurmonov "Ta'lim sifatini boshqarishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar haqida", Kirgiziya Vestnik Batkentskogo gos. Univer. J. 2008. № 5.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishning ahamiyati, innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish, rahbarning kompetentligi to'g'risida mulohaza yuritilib, tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается важность инновационного управления образовательными учреждениями,

организация инновационной деятельности, формирование управленческих навыков, компетентности руководителя, даются рекомендации.

SUMMARY

The article discusses the importance of innovative management of educational institutions, the organization of innovative activities, the formation of managerial skills, the competence of the leader, recommendations are given.

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАЎБАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Мусурмонов Р.

*Чирчиқ давлат педагогика университети
“Мақтаб менежменти” кафедраси доценти, п.ф.н.*

Султонова Д.

*Чирчиқ давлат педагогика университети
“Мақтаб менежменти” кафедраси уқитувчиси*

Таянч сўзлар: таълим муассасаси раҳбари, инновацион фаолият, педагогик жараён, инновацион ёндашувлар, фаолиятни мувофиқлаштириш, бошқарув функциялари, педагогик жараён субъектлари, ўқув мотивларини шакллантириш, инновациянинг асосланганлик даражаси.

Ключевые слова: руководитель образовательного учреждения, инновационная деятельность, педагогический процесс, инновационные подходы, координация деятельности, функции управления, субъекты педагогического процесса, формирование образовательных мотивов, уровень инновационности.

Key words: the head of the educational institution, innovative activity, pedagogical process, innovative approaches, activity coordination, management functions, subjects of the pedagogical process, formation of educational motives, level of innovation.

Маълумки, таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар аста-секин ўз натижаларини бермоқда. Янги Ўзбекистон шароитида замонавий талаблар асосида таълим муассасаларини инновацион бошқариш долзарб муаммо бўлиб қолмоқда. Бу вазифани ҳал этиш таълим муассасалари раҳбарларига катта масъулият юклайди.

Эътироф этиш керакки, таълим муассасаларида педагогик жараёнларни ўзаро боғлиқлиги, алоқадорлиги, узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш, илмий ва инновацион ёндашувлар асосида ташкил этиш зарур бўлган функционал вазифаларни бажариш жараёнларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш, педагогик жараён субъектларининг ўзаро муносабатлари, вазиятларни таҳлил қилиш ва фаолиятни мувофиқлаштириш, бошқарув функциялари ва методларидан оқилона фойдаланиш зарур бўлиб, улар биргаликда бошқарув жараёнида таъсир кўрсатишнинг тартиби, кетма-кетлиги, йўллари ва уларнинг аҳамиятини ифодалайди.

Педагогик жараён субъектлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва такомиллаштириш жараёнлари ҳам қуйидаги ўзига хос хусусиятларга эга:

- поғонавийлик даражаси билан ўқувчиларда ўқув мотивларини шакллантириш даражасининг номуносиватлиги;
- ўқувчиларда билим олиш эҳтиёжини хорижий давлатларнинг илғор тажрибаларини ҳам инобатга олган ҳолда мунтазам шакллантириш ва ривожлантириб бориш, педагогик жараённинг самарадорлик даражасини белгилаш;
- педагогик жараён субъектларининг инновацион жараёнлар натижаларига қизиқишини шакллантиришнинг аҳамиятлилиги;